

Tibbiyot oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun

4984-son  
SHARTNOMA

31.1.2022 yil

Toshkent sh.

Tibbiyotxodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazini o'z ichiga olgan Ustavasosida ish olib boruvchi direktori X.A. Akilov, bundan buyon matnda "Ijrochi" deb ataluvchi birtomondan, bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb ataluvchi **Furqat tumani Tibbiyot birlashmasi Nizom asosida ish olib boruvchi direktor M.B. Ergashev**

birgalikda "Tomonlar", deb ataluvchilar mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Umumiy qoidalar

1.1. Shartnoma Buyurtmachi tomonidan o'qishga yuborilgan tinglovchilarni o'qitish masalalarida Ijrochi va Buyurtmachi o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi hamda Ijrochi va Buyurtmachining ushbu Shartnomaning amal qilish davrida o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarini aniqlashga mo'ljallangan.

1.2. Shartnoma amaldagi qonunchilikni hisobga olgan holda tuziladi va tomonlar uchun, shu jumladan Ijrochi va Buyurtmachi o'rtasida sud va boshqa organlarda nizolarni hal qilishda, qonuniy majburiy hujjat hisoblanadi.

1.3. Tomonlarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalari bilan tartibga solinadi.

II. Shartnoma predmeti

2.1. **Ijrochi Buyurtmachining** o'qishga qabul qilingan kontingentiga kunduzgi ta'lim shaklida davlat ta'lim standarti doirasida kalendar reja va o'quv rejalariga, shu jumladan Ijrochining individual va ta'lim dasturlariga muvofiq, umumiy qiymati **1867500** so'mlik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish majburiyatlarini oladi:

T/r	Kursning nomi (ta'lim dasturing kodi va nomi)	Kursantlar soni	To'lov miqdori
1.	<b>Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish kafedrasi, 5.1.34. "Jamoat salomatligi, birlamchi tibbiy sanitariya muassasalari faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish" (01.12.2021-29.12.2021, UMO ,144)</b>	1	1867500( 1867500*1)
		1	1867500

2.2. **Talabalar** o'quv dasturini o'zlashtirganidan, yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tganidan so'ng ularga belgilangan namunadagi ta'lim va malaka haqida hujjat beriladi.

III. Tomonlarning o'zaro munosabatlari

3.1. **Ijrochi** quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. mustaqil ravishda o'quv jarayonini amalga oshirish, **Talabalarni** baholash tizimlari, shakllari, tartibi va oraliq baholash davriyligini belgilash;

3.1.2. **Talabalarga** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, **Ijrochining** ta'xis hujjatlari, ushbu Shartnoma xamda **Ijrochining** mahalliy normativ hujjatlariga muvofiq rag'batlantirish choralari va intizomiy jazo choralari qo'llash.

3.2. **Buyurtmachi Ijrochidan** ushbu Shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumot olish;

3.3. **Talabalar** quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. **Ijrochidan** ushbu Shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash masalalari to'g'risida ma'lumot olish;

3.3.2. mahalliy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda, o'quv dasturini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan Ijrochining mol-mulkidan foydalanish;

3.3.3. mahalliy normativ hujjatlarda belgilangan tartibda **Ijrochi** tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy, madaniy, sog'lomlashtirish va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

3.3.4. o'zining bilimi, qobiliyatlari, malakasi va ko'nikmalarini baholash hamda ushbu baholash mezonlari haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni olish.

3.4. **Ijrochi** quyidagilarga majbur:

3.4.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, ta'xis hujjatlarida, **Ijrochining** mahalliy nizomlarida belgilangan qabul qilish shartlarini bajargan, **Buyurtmachi** ushbu shartnomaning **IV** bo'limida ko'rsatilgan to'lov tartibiga rioya qilishi sharti bilan **Talabalarni** kursant (tinglovchi) sifatida ro'yxatga olish.

3.4.2. **Buyurtmachi** va **Talabalarga** pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish haqidagi ma'lumotlarni yetkazish;

3.4.3. mazkur shartnomaning **II** bo'limida nazarda tutilgan ta'lim xizmatlarni tashkil etish va lozim darajada ko'rsatilishini ta'minlash. Ta'lim xizmatlari ta'lim standarti, o'quv rejasi, shu jumladan, individual va **Ijrochining** dars jadvaliga muvofiq ko'rsatiladi;

3.4.4. **Talabalarni** o'zlashtirish uchun tanlagan o'quv dasturida ko'zda tutilgan shart-sharoitlar bilan ta'minlash;

3.4.5. **Buyurtmachidan** ta'lim xizmatlari uchun to'lovni qabul qilish;

3.5. **Buyurtmachi** ushbu shartnomaning **II** bo'limida ko'rsatilgan **Talabaga** ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun to'lovni ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va tartibda o'z vaqtida amalga oshirishi hamda bunday to'lovni tasdiqlovchi to'lov hujjatlarini **Ijrochiga** taqdim etishga majbur.

3.6. Boshqa shahardan kelgan **Talaba** o'qish davrida yotoqxonada joy bilan ta'minlanishi mumkin.

3.7. **Talaba** quyidagilarga majbur:

3.7.1. Markaz to'g'risidagi nizomga, **Ijrochining** ichki tartib qoidalari, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi qoidalari va **Ijrochining** boshqa mahalliy qoidalari talablariga rioya qilish.

3.7.2. **Ijrochining** mol-mulkiga ehtiyotkorono munosabatda bo'lish. **Ijrochining** mol-mulkiga yetkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qoplash.

3.7.3. Boshqa talabalar, o'qituvchilar va **Ijrochining** boshqa xodimlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

#### **IV. Ta'lim xizmatlarining narxi, ularni to'lash muddatlari va tartibi**

4.1. O'qitish narxi tasdiqlangan preyskurantga muvofiq 1867500 so'mni tashkil qiladi.

4.2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun shartnoma summasi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so'mda) to'lanadi.

4.3. To'lov **Buyurtmachi** oldindan shartnoma qiymatining 30 foiz to'lovini shartnoma imzolanganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tganidan keyin o'n bank ish kuni mobaynida Markazning hisob-raqamiga o'tkazib beradi.

Buyurtmachi shartnoma qiymatining qolgan 70 foiz to'lovini Markaz tomonidan taqdim etilgan hisob fakturaga asosan, besh bank ish kuni davomida amalga oshiradi.

4.4. Institutdagi o'quv mashg'ulotlari boshlanadigan oyning 01-sanasidan oldin imzolangan shartnoma, shuningdek Shartnoma bo'yicha to'lov va/yoki to'lovni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmasa, kursantning (tinglovchining) darslarga kirishiga ruxsat etilmaydi.

4.5. **Buyurtmachi** tomonidan to'lov qobiliyati yo'qotilgan taqdirda, boshqa yuridik (jismoniy) shaxs **Ijrochi** bilan alohida shartnoma tuzish orqali shartnoma bo'yicha to'lovni amalga oshirish huquqiga ega.

4.6. To'lov naqd pulda yoki **Ijrochiga** xizmat ko'rsatuvchi bankning hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tomonlar **Ijrochiga** xizmat ko'rsatuvchi bank hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan kuni to'lov majburiyatlarini bajarish kuni deb tan oladilar. Pul mablag'lari **Talabani** qabul qilish to'g'risidagi buyruq chiqarilishidan 1 kun oldin kelib tushishi kerak.

4.7. Agar ta'lim xizmatlari **Buyurtmachi** tomonidan to'lanmagan bo'lsa, **Talabalarga** darslarga qatnashishga ruxsat berilmaydi. Bunday holda Ijrochi ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

**Talabalar** tomonidan sababsiz darslari qoldirish **Ijrochining** xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirmaslik uchun sabab bo'lmaydi.

## V. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

5.1. Ushbu Shartnoma tuzilgan shartlar **Tomonlarning** kelishuviga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o'zgartirilishi mumkin.

5.2. Ushbu Shartnoma **Tomonlarning** kelishuviga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

5.3. Ushbu Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinadi:

5.3.1. **Buyurtmachining** tashabbusi bilan;

5.3.2. **Ijrochining** tashabbusi bilan:

- **Talabani** o'qishdan chetlatish intizomiy jazo chorasi sifatida qo'llangan taqdirda; kasbiy ta'lim dasturi (o'quv dasturining bir qismi) bo'yicha - **Talabalar** tomonidan bunday ta'lim dasturini (o'quv dasturining bir qismini) vijdonan o'zlashtirish va o'quv rejasini amalga oshirish majburiyatlari bajarilmagan taqdirda;
- **Talabaning** aybi bilan uning Markazga noqonuniy ravishda o'qishga kirishiga sabab bo'lgan Markazga qabul qilish tartibi buzilganligi aniqlangan taqdirda;
- pullik ta'lim xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirish kechiktirilgan taqdirda;
- **Talabaning** harakatlari (harakatsizligi) tufayli pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha majburiyatlarni tegishli darajada bajarishning imkoni bo'lmasa;
- Talaba yoki uning qonuniy vakillari va Ijrochining irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlar yuz berganda, shu jumladan Ijrochi tugatilgan taqdirda,

5.4. **Ijrochi** zararlarni **Buyurtmachiga** to'liq qoplash sharti bilan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli.

5.5. **Buyurtmachi Ijrochi** tomonidan haqiqatda qilingan xarajatlarni to'lash sharti bilan ushbu shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli.

## VI. Ijrochi, Buyurtmachi va Talabaning javobgarligi

6.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishli darajada bajarmaganligi uchun **Tomonlar** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu shartnoma bo'yicha javobgar bo'ladilar.

6.2. Agar 5 kunlik muddat davomida Ijrochi tomonidan ta'lim xizmatidagi kamchiliklar bartaraf etilmagan bo'lsa, Buyurtmachi Shartnomani bajarishdan bosh tortishga va zararni to'liq qoplashni talab qilishga haqli. Buyurtmachi, shuningdek, taqdim etilgan ta'lim xizmatida jiddiy kamchilik aniqlangan taqdirda yoki shartnoma shartlaridan boshqa muhim og'ishlar aniqlangan taqdirda, Shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli.

6.3. **Ijrochi** ta'lim xizmatlari ko'rsatish shartlarini (boshlanishi va (yoki) ta'lim xizmatlari ko'rsatish oxiri va (yoki) ta'lim xizmatlari ko'rsatishning oraliq muddatlari) buzgan bo'lsa yoki ta'lim xizmatlari ko'rsatish paytida uni o'z vaqtida taqdim etilmasligi aniq bo'lgan bo'lsa, **Buyurtmachi** o'z tanloviga ko'ra quyidagilarga xaqli:

- **Ijrochiga** yangi muddat tayinlash, uning davomida Ijrochi ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni boshlashi va (yoki) ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni tugatishi kerak;
- Shartnomani bekor qilish.

## VII. Shartnoma muddati

7.1. Ushbu Shartnoma **Tomonlar** tomonidan tuzilgan kundan boshlab kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabr** qadar amal qiladi

7.2. **Talabaga** akademik ta'til berilgan taqdirda Shartnomaning amal qilishi, **Buyurtmachi** tomonidan ushbu Shartnomada nazarda tutilgan to'lov tartibiga qo'yiladigan talablar bajarilishi sharti bilan, akademik ta'til berilgan muddatga cho'ziladi. Akademik ta'til davrida ta'lim uchun to'lov undirilmaydi.

## VIII. Yakuniy qoidalar

8.1. **Ijrochi** va uning ushbu shartnomada ko'rsatilgan faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar **Ijrochining** "Internet" tarmog'idagi rasmiy saytida joylashtirilgan mazkur shartnoma tuzilgan sanadagi axborotga mos keladi.

8.2. Ta'lim xizmatlari ko'rsatish muddati (o'qish davri) deb Shartnomada ko'rsatilgan va Kalendar rejada ko'rsatilgan sanalarga mos keladigan vaqt oralig'i tushuniladi.

8.3. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuziladi va: bir nusxasi - Ijrochida, biri - Buyurtmachida saqlanadi.



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING  
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**31.01.2022 yil**

**Furqat tumani**

1. Loyiha turini: Shartnoma.
2. Loyiha nomi: Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi nomidan ustav asosida ish olib boruvchi direktori X.A.Akilov bilan Furqat tuman tibbiyot birlashmasi o'rtasidagi tibbiyot oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma.
3. Loyiha ishlab chiqilgan va kiritilgan sana: Furqat tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022 yil 31 yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022 yil 31 yanvar kuni markazga taqdim qilingan.
4. Loyiha bo'yicha taklif va (yoki) e'tirozlar:

Furqat tumani tibbiyot birlashmasining Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi nomidan ustav asosida ish olib boruvchi direktori X.A.Akilov bilan tibbiyot oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlari bo'yicha pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi № 4984-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

O'rganish natijalari bo'yicha ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilganligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

**XULOSA**

Furqat tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan taqdim etilgan № 4984-sonli shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi, yuqoridagilarga asosan, mazkur shartnoma loyihalarini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq.

**Furqat tuman YuXKM  
bosh yuriskonsulti**



**Sh.Orifjonov**